

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Hilola UMAROVA
G'ayrat SHOUMAROV
Risboy JO'RAYEV
Shaxnoza XALILOVA
Komola FARFIYEVA
Dilnozaxon ABDULLAJANOVA
Ayubxon RADJIYEV
Sharibboy ERGASHEV
Feruza QODIROVA

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda sahifalovchi va dizayn

Ilmira Adilova

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqrib qilinmaydi.

Muallifflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarini kasb-hunarga
yo'naltirish va
psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi
"MAKTAB VA HAYOT" M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda
"MAKTAB VA HAYOT" dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziya ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktavahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI – 1019



MUNDARIJA

M.X.BAYBAYEVA, I.A.IMOMOV.

Ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatida sog'lom va ijodiy muhitni yaratishning pedagogik-psixologik xususiyatlari 2

X.S.RAXIMOVA.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan koxlear implantli bolalarni pedagogik-psixologik reabilitatsiya qilish bosqichlari 4

D.ABDULLAJANOVA.

Innovatsion boshqaruv psixologiyasida liderlik muammosi o'rganilishining muhim prinsiplari 6

J.N.YAKUBOV.

Shaxmatni o'quv jarayoniga kiritish amaliyoti bo'yicha xorijiy tajribalarning didaktik tahlili 8

N.X.UMAROVA.

Kommunikativ kompetensiya – o'qituvchi kasbiy standartining muhim tarkibiy qismi 12

G.I.SATTAROVA.

Mehnatga munosabat irodani shakllantirishning fenomeni sifatida 14

N.BO'RIYEVA.

Dizartriya nutq buzilishida ovoz buzilishlarining namoyon bo'lishi 16

N.YA.QURBONOV.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy qobiliyatini rivojlantirish 18

G.T.YADGAROVA.

Maktabgacha yoshdag'i bola psixik taraqqiyotiga zamonaviy yondashuvlar 20

P.Q.XOLMATOV.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni samarali tashkil etish va takomillashtirish 21

F.R.TESHABOYEVA.

Bo'lajak defektologlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning usul va vositalari 23

M.R.RAHMATULLAYEVA.

Dislaliyada fonematik idrokni rivojlantirish 25

U.S.SARIBAYEVA.

Ijtimoiy normalar va gender farqlarning ta'lim-tarbiya jarayonida shakllantirilishi 26

CH.R.ORZIKULOVA.

O'spirinlar ruhiy salomatligining ijtimoiy fanlarda talqin etilishi 28

M.T.ISAKOVA.

Ruhiy salomatlikning turli ijtimoiy darajalarga bog'liqligi 31

F.F.SA'DULLAYEV.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fransuz tilida gapirish ko'nikmalarini o'yin texnologiyasi yordamida shakllantirish 34

O.ARZIKULOV.

Kasbiy yo'nalganlik muammosining ilmiy o'rganilishi 35

B.X.XUJOMOV.

Maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishning didaktik asoslari 38

B.UMAROV, D.YUSUPOVA, A.MAQSUDOV.

Malaka oshirish kursi tinglovchilarining kompetensiyalarini rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar 40

R.MUSURMONOV, M.MUSURMONOVA.

Modernizatsiyalashgan ta'lim-tarbiya aslo ayro bo'lmasligi kerak 42

F.INOGAMOVA.

Maktab jamoasida sog'lom ijtimoiy psixologik muhitni ta'minlash va ta'lim sifatini oshirishda rahbarning o'rni 44

SH.T.XASANOVA.

Tarixiy obidalar bilan tanishtirish jarayonida tarbiyalanuvchilarda milliy g'ururni shakllantirishning metodik ta'minoti 46



MODERNIZATSIYALASHGAN TA'LIM-TARBIYA ASLO AYRO BO'LMASLIGI KERAK

R.Musurmonov, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, "Maktab menejmenti" kafedrasi dotsenti, p.f.n.
M.Musurmonova, Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich ta'lism metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

В статье рассказывается о народном воспитании, приведены мудрые мысли наших ученых прошлого о воспитании, национальных исторических источниках, даются рекомендации.

Ключевые слова и понятия: национальное образование, мудрые мысли о воспитании, национальные исторические источники.

The article tells about public education, wise thoughts of our scientists of the past about education, national historical sources, recommendations are given.

Key words and concepts: national education, wise thoughts about education, national historical sources.

Ma'lumki, barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi ham milliy, ham umuminsoniy xarakterga ega bo'lib, u bashariyatni ma'naviyat va ma'rifatga, ezgulik va yuksaklikka olib boruvchi komillik sari yo'ldir. Shu sababli ham insoniyat paydo bo'libdiki, tarbiya masalasi kishilar, oilalar, jamoalar, davlatlar oldida muhim muammo bo'lib kelmoqda va ular ko'p variantli yo'llar, vositalar bilan turlicha shakllarda, uslublarda amalga oshirilmoqda.

Aslida bola tarbiyasi ona qornidaligi paytidayoq boshlanmog'i lozim. Shu sababli ham jismonan baquvvat, ma'nan yetuk insonlar doimo ulug'lanib kelingan va hattoki, jismonan baquvvat insonlarga polvon hamda jismonan, ma'naviy yetuk insonlarga pahlavon deb nom berilgan. Insonni ezgulik sari yetaklash haqidagi ta'lismotlar muqaddas kitoblarimiz (Qur'oni Karim, Hadisi sharif, Avesto va shu kabilar)da doimo ulug'lanib kelingan.

Bundan ming yil muqaddam buyuk mutafakkir Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida tarbiya, axloq masalalariga to'xtalib, "Zamon butunlay ozdi. Ilm, hikmat, poklik kamaydi. Tuban, yomonlar ko'paydi, fazilat egalari yo'qolayotir" [1], deya yozgan ekan. Turli davrlarda yashagan donishmandlarning bu singari qarashlarini dunyodagi ko'plab xalqlar tarixida kuzatish mumkin.

Ammo zamon, jamiyat taraqqiyotiga ko'ra yoshlар tarbiyasi masalasida yangi muammolar tug'ilgan hamda tarbiyachilar, ustozlarning oldida vazifalar ko'payib borgan. Odamlar yaxlit, bir butun holda yaxshi yoki yomonga bo'linmaydi. Agar shunday bo'lganda edi, tarbiya masalasi osonlikcha hal bo'lardi. Yaxshi fazilatlar va yomon odatlarning, turli g'oyalarning bir odamning qalbi va ongini egallash uchun kurashi — tarbiya masalasining naqadar murakkab ekanini anglatadi. "Tarbiya" so'zining ma'nolari ko'p bo'lsada, milliy an'analardan kelib chiqsak, tasavvurda avvalo uning "axloqiy" sifati uyg'onadi. Boisi, ota-bobolarimiz bola axloq-odobini tarbiyaning boshqa turlariga nisbatan ustun qo'yishgan. "Binobarin, bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi samarasiz qolmasligi uchun, — deb yozadi birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitrat "Oila" risolasida, — farzandning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanib ko'p harakat qilish lozim. Axloqiy

tarbiya — odam axloqini kamolga yetkazish demakdir, ya'ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe'li va amali o'ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo'lsin" [2]. Fitrat ta'lism olishni ham tarbiya sirasiga qo'shib, uni "aqliy tarbiya" deb ataydi.

Shuningdek, farzandni sog'lom voyaga yetkazish, ya'ni "jismoniy tarbiya" siga ham jiddiy e'tibor qaratib, tarbiyaning ushbu uch turiga xulosa berar ekan, zamonaviy til bilan aytganda, "shaxsning ijtimoiylashuvi"ni sodda ifodalaydi: "...bolalarning tarbiyasi bu farzandni jismonan, fikran va axloqan tarbiya qilib, kamolga yetishtirish demakdir. Ya'ni, ularni urinish va tirishish sahosiga, ya'ni hayot-mamot maydoniga kuchli badan, sog'lom fikr va yaxshi axloq bilan qurollantirib yuborish demakdir". Abdulla Avloniy ham "Turkiy guliston yoxud axloq" risolasida bola tarbiyasiga yondashganda, uni jismoniy, fikriy va axloqiy turlarga ajratib, axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratadi. Ammo zamonaviy ta'lism tizimida "tarbiya" so'zidan chekinish holatlari seziladi, hatto davlatimizning qonuni ham "Ta'lism to'g'risida" deb atalgan.

Shu o'rinda "ta'lism" va "tarbiya" so'zlarining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Milliy tarbiya tarixining atoqli namoyandalari Fitrat va Abdulla Avloniy qarashlarida "tarbiya" so'zining ma'no qamrovi "ta'lism" ga qaraganda birmuncha kengligini ta'kidladik, hatto "ta'lism" mazmun-mohiyati jihatidan "fikr tarbiyasi" yoki "aql tarbiyasi" sifatida tarbiyaning tarkibiy qismi sanaladi. Umuman, tarbiya so'zida yoshlarni (ham jismonan, ham axloqan, ham aqlan) barkamol avlod sifatida tarbiyalash tushuniladi. Ya'ni sodda qilib aytganda, "tarbiyali bola" barkamol avlod demakdir. O'zbek tilining izohli lug'atida tarbiya so'zi arabcha so'z bo'lib, "rivojlantirish, parvarish qilish, o'stirish; o'rgatish; ilm berish" singari bir qator ma'nolarni anglatishi yozilgan [3].

Aqliy va axloqiy tarbiya mushtarakligiga xalqimiz azaldan o'ta zukkolik bilan yondashgan. Abu Nasr Forobiy "Baxt-saodatga erishuv" asarida bu masalani o'ziga xos tarzda izohlaydi: "Ta'lism degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir". Mutafakkir



kasb-hunar egallahsmi ham, tarbiyani ham amaliy faoliyat orqali yuzaga chiqarishni nazarda tutadi, ta'lism esa faqat so'z va nazariy tomondan o'rganish bilan cheklanadi.

“Aqli deb shunday kishilarga aytildiki, — deb yozadi Forobiy “Aql to‘g‘risida” risolasida, — ular fazilatli, o‘tkir muhokamali, yaxshi, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r iste’dodga ega; yomon ishlardan o‘zini chetga olib yuradilar. Shunday kishilarni “oql” deydilar. Yomon ishlarni o‘ylab topishda zehn-idrokka ega bo‘lganlarni “aqli” deb bo‘lmaydi, ularni “ayyor”, “aldoqchi” degan nomlar bilan aytmoq lozim” [1].

Anglshiladiki, Sharqda tarbiya ta’limdan bir qadar keng tushuncha ekan, uning zamirida shaxs fazilatlari, bilimliliqi, kasb-hunar egallagani, odob-axloqi, umuman, jamiyatda odamlarga qay darajada foya keltira olishi asosiy mezon hisoblangan. Tarbiyaviy ruhdagi (“Qobusnoma”, “Mahbub ul-qulub”, “Futuvvatnomayi sultoniy”, “Turkiy guliston yoxud axloq” singari) asarlarda shaxs fazilatlarining tasavvurimizdagi eng kichik, oddiy ko‘rinishlari ham batafsil tavsiflanganki, bu shaxsnинг tarbiyalanganlik darajasini aniqlashda o‘lchov bo‘lib xizmat qiladi. Shaxs fazilatlarini batafsil izohlash, dars jarayonida o‘rganishning yaqqol namunasi Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asaridir. Asarda insonga xos bo‘lgan fazilatlar, yaxshi va yomon xulq va illatlarga birma-bir izoh berilgan. Turli tarixiy davrlarda tarbiya oldida turgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha o‘ziga xos usullar, an’analalar shakllangan. Bitiktoshlardagi mardlik va ezhulikka da’vat, xalq og‘zaki ijodidagi donishmandlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar, odil podshohlar, komil farzandlar, fozil odamlar; o‘rtaslar mutafakkirlarining axloqiy ta’limotlari, “ustoz va shogird”, “pir va murid” an’analari; jadid tarbiyashunosligi singari boy tarixiy manbalar ko‘pligiga guvoh bo‘lamiz. Sho‘ro davridagi “kommunistik tarbiya” esa yuzaki va yolg‘onligi, milliy, tarixiy asosga qurilmagani bilan qisqa vaqt ichida unutildi. Hozirgi zammon jahon pedagogikasida tarbiyaga turlicha ta’rif berilayotgan bo‘lsada, biz uchun sharq mutafakkirlari qoldirgan meros o‘zining hayotiyligi va mazmunan keng qamrovliligi bilan qimmatlidir.

Ayrim hollarda ta’lim muassasalarida ta’limni tarbiyadan ustun qo‘yish, tarbiyani e’tibordan chetda qoldirish holati yoki tarbiyani ta’lim orqali amalga oshirish haqidagi fikrlar ilgari surildi. Ammo jahon pedagogikasidagi bu tajribalar o‘zini oqlamaganligini hayot ko‘rsatib turibdi.

Rus olimi G.K.Selevko e’tirof etganidek, “tarbiyalovchi ta’lim” rus ta’lim tizimiga katta zarar keltirdi — bu ta’limni tarbiyadan ustun qo‘ydi, jamaa tarbiyasini yetarli baholay olmadi, maktabni amaliy hayotdan ajratib qo‘ydi” [4]. Maktab amaliy hayotdan ajralib qolishining asosiy sabablaridan biri, shubhasiz (xuddi shuni sharq mutafakkirlari ta’kidlagan edilar), yosh avlod tarbiyasiga faqat nazariy (ta’limiy) tomondan yondashuv bo‘lib, axloqiy faoliyat e’tibordan chetda qoldirilganidir.

Haqiqatan, ta’lim olish (o‘quv-biluv faoliyati) — aqliy tarbiyani amalga oshirishi, ya’ni mustaqil o‘qish, fikrlashni rivojlantirishi mumkin. Ammo ta’lim zamiridagi tarbiya nazariy bilimligicha qolaveradi, bu faoliyat emas. Rus pedagog olimi I.P.Podlasiy (axloqiy) tarbiyani umumiy falsafiy nuqtai nazardan insonning hayotiy shart-sharoitlarga moslashuvi, ijtimoiy tomondan katta avlod hayotiy va axloqiy tajribalarini yosh avlodga o‘tkazishi, pedagogik jihatdan keng ma’noda insonga barcha ta’sirlar jarayoni va uning natijasi, tor ma’noda o‘quv-tarbiya muassasalarida amalga oshiriluvchi tarbiyachilar tomonidan maxsus tashkil etilgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan va tarbiyalanuvchilarda belgilangan sifat-fazilatlarni shakllantiradigan boshqariluvchi jamoaviy o‘zaro harakat, amaliy nuqtai nazardan aniq tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan tarbiyaviy faoliyat (tarbiyachilar, o‘qituvchilar, sind Rahbarlari, yetakchilar hamkorligida) jarayoni va natijasi deb izohlaydi.

Shuningdek, taniqli rus pedagogi G.M.Kodjasparova tarbiya kategoriyasiga ikki yo‘nalishda yondashadi. Birinchidan, tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida “yangi avlodni ijtimoiy hayotga tayyorlash maqsadida ularga ijtimoiy-tarixiy tajribalarini o‘tkazish jarayoni bo‘lsa, ikkinchidan, pedagogik hodisa sifatida insonga mavjud madaniyatni o‘zlashtirishi uchun aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejorashtirilgan (uzluksiz) sharoit yaratish”, deb izohlaydi. Bu tarbiya maxsus tarbiya muassasalarida, oila, maktab, maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida, bolalar va o‘smirlar birlashmalarida, turar joylardagi klublar singari muassasalarda amalga oshiriladi. Tasavvur qiling, mana shu vazifalarni ta’lim zamirida amalga oshirish mumkinmi? Tarbiyaning maqsad-mohiyati davrlar o‘tishi bilan o‘zgarmaydi, yer yuzidagi barcha millat uchun ham bir xil darajada ahamiyatli. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an’analalar tarbiya mazmun-mohiyatini belgilaydi.

Aqliy tarbiya (ta’lim) aniq dastur va rejalar asosida oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borsa, tarbiyada (axloqiy tarbiya) jamiyatda ro‘y berayotgan voqeahodisalarga nisbatan yoshlarda o‘z vaqtida tegishli munosabat uyg‘otish, aniq maqsad va natijaga yo‘naltirilgan reja va dasturlar ijrosiga qo‘sishimcha ravishda ijodiy yondashuv, ijtimoiy muhitni sinchiklab o‘rganish taqozo etiladi. Aqliy tarbiyaga nisbatan axloqiy tarbiyaning faoliyat qamrovi, oldiga qo‘yilgan vazifalar katta bo‘lib, buning samarali ijrosi uchun maktab imkoniyati torlik qiladi. Shunday bo‘lsada, ta’lim muassasasi tarbiya jarayonining tashkilotchisi, muvofiqlashtiruvchisi bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Demak, axloqiy tarbiyada oila, mahalla, jamoat, maktab hamkorligi hamda bu boradagi muammolar bugun paydo bo‘lgan emas. Bu hamkorlik asosida aniq maqsadga yo‘naltirilgan o‘nlab tarbiya konsepsiylarini, texnologiyalarini yaratish kun tartibida turgan dolzarb vazifa bo‘lib qolaveradi. Davrimizning muammolari ham, tarbiyaviy imkoniyatlari ham barcha davrlardagiga qaraganda ham juda murakkab va ulkandir.



Chunki yoshlari oldiga Yangi O'zbekistonni yaratish, Uchinchi renesans poydevorini qurishdek juda katta mas'uliyat yuklatilgan. Agar tarbiya mana shu mas'uliyatga mos va xos bo'lmas ekan, ko'zlangan natijaga erishish muammoligicha qolaveradi.

Adabiyotlar

1. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. "Ma'rifat gulshani" gazetasi. 6 (11) – 2007 yil.

2. To'raqulov X.A. Kamolot sari. Jizzax, 2007, 181-182 betlar.

3. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 8-jild, 270 bet.

4. Hasanboev J. va boshq. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan, 2009. — 480 b.

5. R.Musurmonov, A.M.Suyarov. Fan va zamonaviy ta'limning asosiy masalalari. Maktab va hayot jurnali. № 2 (158) / 2021.

MAKTAB JAMOASIDA SOG'LOM IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUHITNI TA'MINLASH VA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA RAHBARNING O'RNI

F.Inogamova, O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi metodisti

Данная статья посвящена теме роли директора школы в обеспечении здоровой социально-психологической среды в школьном коллективе и повышении качества образования.

Ключевые слова и понятия: здоровая социальная среда, педагогический коллектив, качество образования, производительность труда.

This article is devoted to the topic of the role of the school principal in ensuring a healthy socio-psychological environment in the school community and improving the quality of education.

Key words and concepts: healthy social environment, teaching staff, education quality, labor productivity.

Maktab jamoasida sog'lom ijtimoiy psixologik muhit nima? Bu mehnat unumdorligini oshirish, xodimning ishdan va jamoadan mammunligini oshirish shartidir. Yaxshi muhit – jamoa a'zolari bilan tizimli ravishda olib boriladigan tarbiyaviy ishlari, ular o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etishga qaratilgan maxsus tadbirlarni amalga oshirish natijasidir. Demak, sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish va takomillashtirish har bir rahbarning doimiy amalii vazifasidir. Ijtimoiy psixologik muhit o'qituvchining faoliyati samaradorligini u mehnat qilayotgan jamoaning ijtimoiy psixologik muhiti, shart-sharoitlariga bog'liq.

Zamonaviy jamiyatda maktab rahbarining roli ayniqsa muhim va mas'uliyatlari bo'lib, ta'limga sifati va jamoada sog'lom muhit uni kim boshqarishiga bog'liq. Zamonaviy maktab direktorining vazifalari nafaqat o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishni, balki pedagogik kadrlar rivojlanishining yuqori samaradorligi uchun shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Maktab rahbari tomonidan boshqariladigan resurs uchta tarkibiy qismidan iborat: direktor ma'lum darajada o'quvchilarni, ularning ota-onalarini va pedagogik jamoani boshqaradi. Boshqaruv resurslari uchligi puxta o'yangan boshqaruvni nazarda tutadi. Bolalar bilan ishlash rahbardon professional pedagogik mahoratni, ota-onalar bilan ishlash psixologik mahoratni, pedagogik jamoa bilan ishlash tashkilotchilik qobiliyatini talab qiladi.

Ta'limga bo'lgan zamonaviy talablar rahbarning menejer sifatidagi pozitsiyasini o'zgartiradi. Endi rahbarga moliyaviy menejment bo'yicha va iqtisodiy bilim kerak. Buning uchun strategik fikrlash, shu bilan birga o'quv jarayonini yaxshi bilish kerak bo'ladi. Bu fazilatlarning uyg'unlashuvni zamonaviy maktabning asosiy vazifasi

bo'lgan ta'limga sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Maktabda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun rahbar yangi texnologiyalarni malakali, mohirona egallashi zarur. Rahbar o'z ishida zamonaviy texnologiyalardan foydalananish naqadar muhim va qulay ekanligini o'z tajribasidan anglab yetgandagina, bu jamoa tomonidan ushbu texnologiyalarni ishlab chiqishga munosabatni o'zgartirishning ajralmas shartiga aylanadi. Zamonaviy maktabning rahbari asosiy vazifani, ya'ni ta'limga sifatini ta'minlashda bugun muhim bo'lgan va ertaga yanada muhimroq bo'ladigan vazifalarni qo'yish va eng muhim, ularni hal qilish yo'llarini topishi talab etiladi.

Maktab boshqaruvni nafaqat xodimlarni samarali boshqarish, maqsadlar, vazifalar, qabul qilingan qarorlarga erishishda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, ularning bajarilishini nazorat qilish va tahlil qilishni tashkil etish uchun zarurdir. Ta'limga sohasida jadal davom etayotgan o'zgarishlar sharoitida ularning mohiyati va mazmunini, huquqiy ta'minotini, ta'limga tartibga soluvchi qonunchilik bazasidagi o'zgarishlarni yaxshi bilish zarur. O'z tasarrufidagi ta'limga muassasasida ta'limga sohasidagi samarali o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy shaxs aynan maktab rahbari hisoblanadi. Zero, o'zbek ta'limga modelining taqdiri va oxir-oqibat, vatan kelajagi uchun asosiy g'oyalarni qabul qilish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash ham ta'limga muassasasi o'qituvchilari va bu ta'limga samaradorligini ta'minlashda samarali boshqaruvni amalga oshiradigan rahbarning salohiyatiga chambarchas bog'liq.

Maktab rahbari o'quvchilarni, ota-onalarni va pedagogik xodimlarni boshqaradi. Buning uchun u o'qituvchi va tashkilotchi bo'lishi, huquqiy va iqtisodiy bilimlarga ega